

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

SHIRIN OBRAZINING TARIXIY ASARLARDAGI TALQINI

Nafisa RAXMANOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi,
nafisa@cspi.uz

Аннотatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Shirin obrazining tarixiy asarlardagi talqini haqida fikr yuritiladi. Go‘zal va oqila Shirin obrazining genezisini aniqlashda VII-XII asrlarda yunon, arman, arab va fors tilida yaratilgan tarixiy asarlarga, shuningdek, “Suriya anonim solnomasi”ga tayanildi. Navoiyning bu asarlarni saralash, qayta ishlash va yangi g‘oyaviy niyatga bo‘ysundirishdagi mahorati haqida fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar: Sosoniylar sulolasi, Xusrav II Parviz, Shirin, Simokatta, Sebeos, “Suriya anonim solnomasi”, al-Jahiz, Dinavariy, Tabariy, Bal’amiy.

Аннотatsiя

В статье рассматривается трактовка образа Ширин в эпосе Алишера Навои «Фархад и Ширин» в исторических произведениях. С целью определения генезиса и прообраза красивой и умной женщины Ширин, были использованы исторические сочинения, написанные на греческом, армянском, арабском и персидском языках в VII-XII веках, а также «Сирийская анонимная хроника». Обсуждается умение Навои сортировать, обрабатывать и подчинять эти произведения новому идеологическому замыслу.

Ключевые слова: династия Сасанидов, Хосров II Парviz, Ширин, Симокатта, Себеос, «Сирийская анонимная хроника», аль-Джахиз, Динавари, Табари, Бальями.

Abstract

The article discusses the interpretation of the image of Shirin in Alisher Navoi’s epic “Farhad and Shirin” in historical works. In order to determine the genesis and prototype of the beautiful and intelligent woman Shirin, historical works written in Greek and Armenian, Arabic and Persian in the 7th-12th centuries, as well as the “Syrian Anonymous Chronicle” were used. Navoi’s ability to sort, process and subordinate these works to a new ideological plan is discussed.

Key words: Sassanid dynasty, Khosrow II Parviz, Shirin, Simokatta, Sebeos, “Anonymous Syrian Chronicle”, al-Jahiz, Dinawari, Tabari, Balami.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonini yaratishda, xamsachilikdagi salaflari asarlaridan tashqari, qaysi tarixiy asarlarni o‘rganib chiqqanini, qaysi ishqiy-romantik dostonlardan ijodiy foydalanganini aniqlash obrazlar genezisini to‘g‘ri talqin qilishga imkon beradi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi har tomonlama yetuk va go‘zal qahramon Shirinning tarixiy asarlardagi prototipi talqinini o‘rganishda manbalarni xronologik tartibda tadqiq etishni maqsadga muvofiq bildik, chunki tarixiy voqealarning adabiyotga ko‘chishi, adabiyotdagi badiiy transformatsiyasini tahlil etishda xronologik prinsip asosida tadqiq etish eng to‘g‘ri yechimdir.

Sosoniylar sulolasining 23-podshohi Xusrav II Parvezning sevimli rafiqasi Shirin shaxsi haqidagi ilk ma‘lumot Vizantiya tarixchisi Feofilakt Simokattaning “Tarix” kitobida keltirilgan [11]. Feofilakt Simokatta Vizantiya imperatori Irakliyning maslahatchisi va mirzosi bo‘lgan. U Eron shohi Xusrav II ning Vizantiya qaysariga yozgan maktubiga asoslanib, Shirinni Vizantiyada tug‘ilgan, xristian diniga mansub rumlik qiz deb ko‘rsatadi. G.Begdeli Simokattaning Shirinning millatini rumlik deb berishiga shubha bilan qaraydi, chunki o‘sha davrda Vizantiya ko‘p millatli davlat bo‘lgan. Uning tarkibida, rumliklardan tashqari, arman, assuriy, arab, kurd, oromiy, yunon kabi turli xalq vakillari yashagan [4.16].

Shirin haqidagi ma‘lumotlar VII asrda yashagan arman tarixchisi yepiskop (kashish) Sebeosning “Tarix” kitobida ham berilgan [8.43-45]. Asarning XI bobi Shirin ta‘rifiga bag‘ishlanadi: Xusrav, otashparast xotinlari ko‘p bo‘lishiga qaramay, xristian diniga mansub qizlarni ham o‘z nikohiga olgan. Ulardan biri –Xusravning yosh xotini, go‘zallarning go‘zali, xujistonlik xristian Shirin edi. U saroyda “bonuyi bonuyon” (“bonular bonusi”), ya‘ni shohning birinchi raqamli rafiqasi bo‘lgan. Shirin shoh saroyining yaqinida monastir va cherkov qurdiradi. Vizantiyadan kashishlar va boshqa diniy vazifalarni bajaruvchi shaxslarni taklif qilib, xazinadan ularga maosh tayinlaydi, xodimlarning maxsus kiyimlari uchun pul ajratadi. Cherkov va monastir oltin-u kumushlar bilan bezatiladi. Shoh saroyida ochiqchasiga Xudo shohligining xushxabari haqida va‘z qilinar, katta qohinlar bunga qarshilik qila olmas edilar. Keyinchalik zardushtiylik dinining kelajagidan tashvishga tushgan Xusrav xristianlikni qabul qilgan kohinlarni dahshatli jazoga mahkum etadi va “Har kim ota-bobosining dinini mahkam ushlashi kerak. Kimki zardushtiylikdan xristianlikka yoki, aksincha, xristianlikdan zardushtiylikka o‘tib, ajdodlari e‘tiqodiga xiyonat qiladigan bo‘lsa, o‘linga mahkumdir” degan farmonni imzolaydi. XII bobdagi payg‘ambar Doniyor jasadi bilan bog‘liq ilohiy mo‘jiza bayonida ham Shirin bevosita ishtirok etadi. Imperator Mavrikiy Xusrav II dan podshoh xazinasida mis tobutda saqlanayotgan payg‘ambar Doniyor jasadini berishni so‘raydi. Xusrav kohinlarga imperatorning

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

iltimosini bajo keltirishni buyuradi. Payg‘ambar jasadini berib yuborishga tish-tirnog‘i bilan qarshi bo‘lgan Shirin esa, shohni bu yo‘ldan qaytara olmagach, mamlakatdagi barcha xristianlarga namoz va ibodatlarida Iso payg‘ambardan Xudoning bunday inoyati Eron zaminidan olib chiqib ketilmasligini so‘rashni buyuradi. Butun mamlakat ko‘zida yosh bilan Isoga murojaat qiladi. Jasadni podshoh to‘shagiga yotqizib, taxti ravonda shahar darvozasidan olib chiqib ketishlari bilan shahar ichidagi ariqdagi suvlar oqishdan to‘xtaydi, buloqlarning ko‘zi quriydi. Qo‘shin shahardan uch chaqirim uzoqlashganida, taxti ravonga qo‘shilgan xachirlar to‘xtab qoladi. Ularni hech kim joyidan siljita olmaydi. Birdan xachirlar pishqirib, qo‘riqchilar safini yorib o‘tib shahar tomonga chopib ketadi. Jasad ortilgan taxti ravon shaharga kirishi bilan yana ariqlarda suvlar oqa boshlaydi. Bu karomatdan xabar topgan imperator Mavrikiy Xusravga sovg‘alar jo‘natib, niyatidan qaytganini bildiradi.

Sebeos Shirinning tarixiy shaxs ekanini tasdiqlagan holda, uning millatini aniq ko‘rsatmaydi. Sebeosning o‘zi arman millatidan ekanini hisobga olsak, Shirin arman millatiga mansub bo‘lganida edi, tarixchi Shirin haqida atroflicha ma‘lumot bergan bo‘lar edi, deb ta‘kidlaydi G.Begdeli [4.16].

Shirin haqidagi keyingi ishonchli ma‘lumot sifatida VII asrning 70-80-yillarida yozilgan, mualliflari noma‘lum Suriya manbalarini ko‘rsatish mumkin. Bu xronikalarning birida birinchi marta Shirinning arman millatiga mansub ekanligi xususida ma‘lumot berilgan bo‘lsa, boshqasida malikaning ismi Sira deb ko‘rsatilgan va uning oromiy millatiga mansub ekanligi qayd etilgan [2.42]; [4.16]. Oromiylar Suriyaning eng qadimgi muqim aholisidan bo‘lib, ular istiqomat qiladigan hudud Armanistonning bir qismi bo‘lgan. Zakariyo Kazviniy (XIII asr) ham “Osor ul-bilad va axbor ul-ibad”da Shirinni Arman podshohlaridan birining qizi deb tanishtiradi [7].

Shirin haqida ma‘lumot beruvchi ilk manbalardan yana biri arab yozuvchisi Abu Usmon Umar ibn Bahr al-Jahizning (773-869) tarix va rivoyatlar uyg‘unlashib ketgan ”Al-mahasin v-al -azdad” nomli tarixiy asaridir. Tarixiy asarda Xusrav va uning go‘zal, aqlli xotini Shirin haqida bir nechta rivoyat berilgan. “Xusrav va Kurdiya”, “Xusrav va baliqchi”, “Fidokor xotin” rivoyatlari shular jumlasidandir. Shirinning o‘limi fojiasi qalamga olingan ”Fidokor xotin yoki vafoli umr yo‘ldoshning fidokorligi” hikoyatining qisqacha mazmuni quyidagicha: Sheruya otasini o‘ldirib, hokimiyat tepasiga kelganidan keyin uning butun mulkiga egalik qila boshladi. Shiringa ham egalik qilishni istab elchi jo‘natadi. Beva malikaning rad javobi Sheruyaning g‘azabiga sabab bo‘ladi va u Shirinning butun mulkini musodara qiladi. Shirin boyliklarini qaytarib olib, yo‘qsillarga tarqatish va o‘zining vafoli umr yo‘ldoshi ekanligini sobit qilish uchun aqlli bir tadbirni reja qiladi. Bir xodimasini Sheruyaning

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

oldiga yuborib shunday deydi: “Sheruya mening uchta talabimni bajarsa, unga rafiq bo‘lishga roziman: 1) mendan tortib olgan bor mulkimni qaytarsin; 2) mamlakatdagi barcha kiborlar va sarkardalarni saroyga to‘plasin, o‘zi taxtga chiqib mening pok ayol ekanligimni e‘tirof etsin; 3) Xusrav menga bir omonat topshirgan edi. Ijzat bersin, men uning maqbarasiga kirib, omonatni mayitga topshiray. So‘ngra esa shohning orzusini amalga oshiray”.

Sheruya har uchala shartni qabul qiladi. Shirin pok xotin ekanligini sobit qilib, butun boyligini muhtojlarga bo‘lib beradi. So‘ng Xusravning maqbarasiga kirib, uning mozorini quchoqlaydi va yonida yashirib olib yurgan o‘ta kuchli zaharni ichib halok bo‘ladi [1.16].

E‘tiborlisi shundaki, Shirinning fojiali o‘limi haqida ma‘lumot beruvchi ilk tarixiy manba bo‘lgan “Al-mahasin v-al -azdad”dagi rivoyatlardan Firdavsiy, Nizomiy va ularning izdoshlari unumli foydalanganlar.

Abu Hanifa Ahmad ibn Doud ibn Vanand ad- Dinavariy (895-yilda vafot etgan)ning “Kitob al-axbor at-tival”ida Shirinning ismi Sheruyaning aybnomasiga Xusrav tomonidan berilgan javobda eslanadi. Xusrav 18 ta o‘g‘liga nima maqsadda cheklovlar qo‘yganini ochiqlar ekan: “Endi shaxsan senga to‘xtalsak, sen tug‘ilgan kunda bashoratchilar yulduzlarga qarab sening davlatimizga isnod olib kelishingni, bevosita sening qo‘ling bilan bizning hukmronligimizga yakun yasalishini bashorat qildilar. Biz seni o‘ldirishga hukm qilmadik, holbuki qo‘limizda hukmronligimizning o‘ttiz sakkizinchi yilida davlat sening qo‘lingga o‘tishi haqidagi bashorat yozilgan Hind podshohi Karmasiyning xati ham bor edi. Bu xat faqat o‘lganimizdan keyin sening qo‘lingga tushishini bilsak-da, uni sendan yashirdik. O‘sha xat tug‘ilganing haqidagi guvohnoma bilan birga hazrati oliyamiz Shirinda saqlanadi. Azob va tashvishlaringni ziyoda qilay desang, ularni olib o‘qi”,- deydi [9,133]. Shiringa nisbatan “Hazrati oliyamiz” so‘zining ishlatilishi, uning nafaqat go‘zalligi bilan, balki aqli-zakovati, odobi bilan saroy xonimlaridan ustun turishini, davlat boshqaruvi ishida Shirinning ham o‘z o‘rni borligini ko‘rsatadi.

Sosoniylar sulolasi tarixiga oid ishonchli manbalardan biri Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (839-923)ga tegishlidir. Uning “Tarix al-umam va-l-muluk” (“Millatlar va hukmdorlar tarixi”) deb ataluvchi asarining “Kisro Parviz” bo‘limida Shirin haqida quyidagi ma‘lumotlar berilgan: “Menga Hisham bin Muhammaddan naqlan shuni so‘yladilar: Kisro Parvezning o‘n sakkiz o‘g‘li bor edi. To‘ng‘ich farzand bo‘lgan Shahriyorni Shirin o‘ziga o‘g‘il qilib olgandi. Munajjimlar Kisroga:”O‘g‘illaringdan biri o‘g‘il farzand ko‘radi va sen o‘tirgan taxt va davlat o‘sha bola tomonidan parchalanadi, bolaning tanasida qusuri bo‘ladi”, deya bashorat

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

qilganlari tufayli u farzandlarining ayollarga yaqinlashishiga monelik qilardi. Shahriyor Shiringa shikoyat qilguniga qadar Kisroning tarbiyasi o‘g‘illari, ayollar bilan munosabatda bo‘lmay, bu shaklda yashadilar. Nihoyat Shahriyor Shiringa odam yo‘llab, shahvatni yenga olmayotganidan shikoyat qiladi, “yoningga mingta ayolni jo‘natinglar, bo‘lmasa o‘zimni o‘ldiraman” deb qo‘rqitadi. Shirin unga : “Men sening yoningga erkak kishi yuziga qaray olmaydigan darajada xunuk ayolni jo‘natishim mumkin”,- deya javob bersa, Shahriyor: ”Ayol kishi bo‘lsa bo‘ldi, menga farqi yo‘q”, deb xabar yo‘llaydi” [10.1234]. Shirin obro‘li kishining qizi bo‘lgan, lekin bir ish masalasida norozilik bildirgani uchun hajamatchilikka tayin etilgan joriyasini Shahriyorning oldiga yuboradi. Joriyaning homilador bo‘lganini eshitgan Shirin nabirasi Yazdijurd tug‘ilgunicha joriyani hibsdan saqlaydi. Bolani besh yil odamlar ko‘zidan yashirgan Shirin, nihoyat, nabirasini Xusravga ko‘rsatishga qaror qiladi. Qarib qolgan Xusravning qalbida yosh bolalarga nisbatan mehr uyg‘ongani uchun nabirasini yoniga chorlab quchoq‘iga oladi, o‘pib erkalaydi, birga o‘ynaydi, hatto u bilan birga uxlaydi. Bir kuni munajjimlar aytgan bashorat esiga tushadi, nabirasini yoniga chaqirib, kiyimlarini yechadi va uning orqasiga boqib bashoratda aytilgan qusurni ko‘radi. G‘azab otiga minib, bolani dast ko‘tarib yerga urmoqchi bo‘lganida Shirin darhol bolaga yopishadi, Kisroga:”Xudo haqqi, bolani o‘ldirma, davlat haqida yuborilgan ilohiy amr haqiqatda bor bo‘lsa, uni o‘zgartirib bo‘lmaydi”, deya yolvoradi. Kisro:” Menga xabar berilgan badbaxt bola – shu. Uni uyimdan yo‘qot, ko‘zim ko‘rmasin”, deydi. Shirin bolani Sijistonga, boshqa bir manbaga ko‘ra, Sevaddagi Himana qishlog‘iga –sut onasining yoniga yuboradi [10.1235-1236].

Shirin haqidagi ahamiyatga ega yana bir ma‘lumot “Sheruya” bo‘limida berilgan. Xusrav II Parvez munajjimlar tomonidan Sheruyaning kelajagi haqida yozilgan taqdirnoma va Hind hukmdori Farmishaning Sheruyaga yo‘llagan maxfiy xatini rafiqasi Shiringa yashirib qo‘yish uchun beradi. Birinchi hujjatda tug‘ilajak bolaning kelajakda Xusravning o‘limiga sababchi bo‘lishi; ikkinchi hujjatda Sheruyaning padarkushlik yo‘li bilan otasining taxtiga o‘tirishi, ya‘ni Kisro hukumdorligining o‘ttiz sakkizinchi yilida toj kiyib, uning davlati, mulki va mamlakatlariga sohib bo‘lishi yozilgan edi [10.1244-1245]. Xusravning o‘ta nozik hujjatlarni rafiqalaridan faqat Shiringa ishonib topshirishi va dahshatli sirni ham yolg‘iz u bilan baham ko‘rishi go‘zal va oqila, sadoqatli Shirinning buyuk Kisro hayotida qanday o‘rin tutganini ko‘rsatadi, shubhasiz.

At-Tabariy Shirinning qaysi dinga mansubligi va kelib chiqishini aniq ko‘rsatadi: Shirin xristian bo‘lib, Iroqning Baduriya viloyatida tug‘ilgan. At-Tabariy asarida Sheruyaning Shiringa oshiq bo‘lishi va erining o‘limidan keyin Shirinning o‘zini

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

o‘ldirishi voqealari berilmagan. Holbuki, Abu Usmon Jahizning yuqorida qayd etilgan asari “Millatlar va hukmdorlar tarixi”dan yarim asr avval yaratilgan va tarixchi yashagan davrda mavjud edi. Bizningcha, at-Tabariy shohlar va ularning yurishlari haqida tarixiy asar yaratish an’anasiga sodiq qolib, hukmdorlarning shaxsiy hayotiga, his-tuyg‘ulariga e’tibor qaratmagan.

Shirin haqida ma’lumot beruvchi navbatdagi tarixiy asar Mansur ibn Nuh Somoniy tashabbusi bilan mashhur Somoniy tarixchisi Bal’amiy tomonidan 963-yilda fors tiliga tarjima qilingan “Tarjimayi Tarixi Tabariy az Abu Ali Muhammad Bal’amiy” asaridir. Bu asar arab tilidan fors tiliga shunchaki tarjima bo‘lmay, tarjimon ijtimoiy-siyosiy voqealarni xronologik tartibda bayon etgan va asarni qayta ishlagan, yangi dalillar bilan boyitgan. Masalan, Farhodning Shiringa oshiq bo‘lishi va fojiali o‘limi voqealari. Bal’amiy Xusravning burungi sultonlarga nasib qilmagan hayratomuz boyliklari, “Ganji bodovard”, saroyidagi 12 ming go‘zal joriya, Barbad ismli sozanda, Shabdiz laqabli otini ta’riflar ekan, “Uning rumlik kanizlaridan Shirin ismli bir rafiqasi bor ediki, butun Rum va Turk o‘lkasida undan go‘zali yo‘q edi” deya Shirinning behad go‘zal bo‘lganligini e’tirof etadi [4. 21]. Alisher Navoiy ham “Tarixi muluki Ajam” asarida Shirinning nihoyatda go‘zal ayol bo‘lganligini tasdiqlaydi: “Shirindek mahbubi bor erdikim, olamda aningdek husn-u latofat va jamol-u malohat hech kimda yo‘q erdi” [3.230]. XII asrda yaratilgan nodir tarixiy asarlardan biri “Kitabi mujmal at - tavorix v-al-qisas”dir. Muallifi noma’lum bu asar milodiy 1126-yilda yozilgan bo‘lib, unda Xusrav va Shirin haqidagi qiziqarli ma’lumotlardan tashqari, Xusravning Maryam, Kurduya, Bahromduxt ismli sevimli rafiqalari va Farhod haqida bahs yuritiladi: “...uning (ya’ni Xusravning) haramxonasida 12 ming nafar joriya yashardi. Rum Qaysarining qizi Maryam, Bahromduxt, Kurduya va dunyo go‘zali bo‘lgan Shirin ulardan biri edi. Sipohbad Farhod unga oshiq bo‘ldi... Natijada izlari bugungi kungacha Bisutun tog‘ida saqlanib qolgan ishlarni qilishga majbur qilinadi” [4.37].

Shirinning millati, dini va tug‘ilgan joyi haqida tarixchi olimlar hanuz yakdil bir to‘xtamga kelmaganlar. Manbalarda Shirinning Xusravga turmushga chiqishidan avval bir joriya bo‘lgani va uning Eronga tashqaridan olib kelingani aytilgan. Vizantiya tarixchisi Simokatta go‘zal Shirinni xristian diniga mansub bo‘lgan rum qizi deb tanishtirsa, Suriya anonim solnomalarida arameyanka (oromiylardan), “Xusrav va Shirin” dostonlari va ularga bag‘ishlangan tadqiqotlarda arman qizi (Bertels), ozar qizi, qipchoq qizi (Nizomiy), eroniy qiz (Zabihilloh Behruz), hatto yunon millatiga mansub deb atash holatlari kuzatiladi. Barcha tarix asarlarida Shirinning Iso Masih diniga e’tiqod qilgani va umrining oxirigacha dinini o‘zgartirmagani haqida aniq ma’lumot berilgan bo‘lsa-da, Firdavsiyning Shirini yazdon diniga e’tiqod qiladi.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Shirinning tug‘ilgan joyi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarda ham ana shunday qarama-qarshiliklar bor: vizantiyalik (Simokatta), xujistonlik (Sebeos), baduriyalik (Tabariy), armanistonlik (Zakariyo Qazviniy), paratlik (G.Y. Aliyev) bo‘lishi mumkin degan taxminlar ilgari suriladi. Bizningcha, tarixiy Shirinni "vizantiyalik" deb tanishtirish to‘g‘riroqdir, chunki o‘sha paytda hozirgi Iroqning Xujiston, Baduriya viloyatlari, Parat shahri, hatto, G‘arbiy Armaniston ham Vizantiya davlatining bir qismi bo‘lgan.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin”ning kirish qismida ”tarhi toza doston”ni yaratish uchun turli-tuman tarixiy asarlar bilan tanishgani va ulardan manzum bo‘ladigan juda ko‘p durlarni topganini ta’kidlaydi, lekin tarixiy manbalarning nomini keltirmaydi. Ularning orasida VII-XII asrlarda yunon, arman, arab va fors tillarida yaratilgan, biz yuqorida eslab o‘tgan tarixiy asarlarning ham bo‘lishi haqiqatga yaqindir. Navoiyning Shirini Farhod uchun majoziy ishq yo‘lida mazhar vazifasini bajarishi kerak edi, shuning uchun hazrat Navoiy Shirin timsolini yaratishda birorta tarixiy asarga bog‘lanib qolmaydi. Tarixiy Shirinning ko‘zni qamashtiruvchi husni va go‘zal fazilatlarini o‘zi yaratgan badiiy obrazga ko‘chiradi. Xusrav Parvezga bo‘lgan buyuk sevgisi va sadoqatini esa Farhodga yo‘naltiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abi Osman Amr Bin Bahr Al-Jahiz Al-Basari. Kitab al-Mahasin wal-Azdad. - Egypt, 1906-P.262. [digitallibraryindia](#); [JaiGyan](#)
2. Алиев Г.Ю. Легенда о Хосрове и Ширин в литературах народов Востока. – М., 1960. – с. 168.
3. Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам.Асарлар. 15 томлик, 14-том. – Тошкент, 1967.- 270 бет.
4. Бегдели Г. Шэрг эдэбијатында „Хосров вэ Ширин“ мөвзусу. - Бакы, “Елм”, 1970. -С.372
5. Бертельс Е.Э..Низами. –Москва, 1956.- С. 304.
6. Еркинов С. Навоий «Фарход ва Ширин»и ва унинг қиёсий таҳлили (Масъул муҳаррир С.Ғаниева). Т., «Фан», 1971.- 276 бет.
7. Zakariya bin Muhammad bin Mahmud al- Qazwaini. Asor al-bilad wa akhbar al-`ibad. - Egypt,1848.-P.432. [digitallibraryindia](#); [JaiGyan](#)
8. История епископа Себеоса. Под редакцией С. Малхасянца. -Ереван, АрмФАН-а, 1939. - С.184
9. Колесников А.И. Иран в начале VII века/ Палестинский сборник.Выпуск 22 (85)- Ленинград, «Наука»,1970.-С.145.
- 10.Taberi. Milletler ve Hukumdarlar Tarihi tercemesi,III.- Istanbul, 1991. – S.452
- 11.Феофилакт Симокатта. История.// Памятники средневековой истории народов Центральной и Восточной Европью –Москва, 1957.- С.224.